

ISSN: 3093-9275

ZAMONAVIY ILM-FAN

VA INNOVATSION TADQIQOTLAR

J U R N A L I



ILMIY YONDASHUV



INNOVATSIYA



TARAQQIYOT



2026

01 (02)

SON

BOSH MUHARRIR: Uralov Azamat Begnarovich

Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat markazi, Tillar, pedagogika va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi kafedrasi mudiri, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Email: Azamaturalov06@gmail.com

TAHRIRIYAT KENGASHI:

*Navro'zova Gulchehra Nigmatovna
Agzamxodjayeva Shaxnoza Saidmatlabovna
Ruzmatova Gulnoz Miraxrarovna
Gularam Kamilovna Masharipova
Abdullayeva Dilnoza Narzullayevna
Valiyeva Feruza Rashidovna
Xajiyeva Maksuda Sultanovna
Abdullayev Utkir Ismailovich
Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li
Xolmirov Begali Abdixamidovich
Normatov Ibroximali Xolmamatovich
Axmedova Muyassar Xadimatovna*

***Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazrligining 2024 yil 31 yanvardagi***

***24 sonli qaroriga binon jurnal quyidagi
bazalarda indekslanadi***

*(11) ResearchBib,
(12) Directory Indexing of
International Research Journals-
CiteFactor,
(14) Directory of Open Access*

**ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSION
TADQIQOTLAR INSTITUTI**

KONTAKTLAR:

*Toshkent viloyati, Piskent tumani,
Do'ngqo'rg'on MFY, Mustaqilligi ko'chasi, 41-
uy*

+998 955868893

zamonaviyilmfanjurnali@gmail.com

*Multidistsiplinar ochiq kirishga ega ilmiy jurnal
ISSN: 3093-9275 ga ega Zamonaviy Ilm-Fan va
Innovatsion Tadqiqotlar Jurnali bo'lib u*

01.00.00 — Fizika-matematika fanlari

02.00.00 — Kimyo fanlari

07.00.00 — Tarix fanlari

08.00.00 — Iqtisodiyot fanlari

09.00.00 — Falsafa fanlari

10.00.00 — Filologiya fanlari

12.00.00 — Yuridik fanlar

13.00.00 — Pedagogika fanlari

19.00.00 — Psixologiya fanlari

22.00.00 — Sotsiologiya fanlari

*sohalari va tegishli fanlar bo'yicha maqolalarni
chop etishni ta'minlaydi.*



UBAYDULLAXON DAVRIDA BUXORO XONLIGIDA DAVLAT BOSHQARUVI VA SIYOSATI (1533–1539)

Farg'ona davlat universiteti, Tarix fakulteti,
Tarix yo'nalishi, 3-kurs talabasi E-mail:
ruxshonaabduvoidova@gmail.com

Annotatsiya Ushbu maqolada Ubaydullaxon (1533–1540) hukmronligi davrida Buxoro xonligida olib borilgan davlat boshqaruvi tizimi va islohot siyosati tahlil qilinadi. Tadqiqotda markaziy va mahalliy boshqaruv tuzilmalari, soliq va iqtisodiy islohotlar, harbiy tashkilot, sud-huquqiy tizim hamda diniy-ma'naviy siyosat kabi asosiy yo'nalishlar ko'rib chiqiladi. Maqolada Ubaydullaxonning davlat boshqaruviga qo'shgan hissasi, islohotlarining mazmun-mohiyati va XVI asr Markaziy Osiyo tarixidagi o'zni tarixiy manbalarga asoslanib yoritiladi.

Kalit so'zlar: Ubaydullaxon, Buxoro xonligi, davlat boshqaruvi, Shayboniylar, XVI asr, islohotlar, markazlashtirish siyosati, soliq tizimi, harbiy tashkilot, diniy siyosat, Movarounnahr.

Аннотация В данной научной статье анализируется система государственного управления и политика реформ в Бухарском ханстве в период правления Убайдуллахана (1533–1540). В исследовании рассматриваются центральные и местные административные структуры, налоговые и экономические реформы, военная организация, судебно-правовая система, а также религиозно-духовная политика. На основе исторических источников освещается вклад Убайдуллахана в государственное управление, суть его реформ и роль в истории Средней Азии XVI века.

Ключевые слова: Убайдуллахан, Бухарское ханство, государственное управление, Шейбаниды, XVI век, реформы, политика централизации, налоговая система, военная организация, религиозная политика, Мавераннахр

Annotation This scholarly article analyzes the system of state governance and reform policies in the Bukhara Khanate during the reign of Ubaydullakhan (1533-1540). The study examines central and local administrative structures, tax and economic reforms, military organization, the judicial system, and religious policy. Based on historical sources, the article elucidates Ubaydullakhan's contribution to state governance, the substance of his reforms, and his place in the history of Central Asia in the 16th century.

Keywords: Ubaydullakhan, Bukhara Khanate, state governance, Shaybanids, 16th century, reforms, centralization policy, tax system, military organization, religious policy, Transoxiana.



KIRISH

Ubaydullaxon (taxminan 1486-1540) Shayboniylar sulolasining eng buyuk vakillari qatorida tilga olinuvchi davlat arbobi va hukmdor bo'lib, 1533-yildan 1540-yilgacha Buxoro xonligida oliy hukmdor sifatida hukmronlik qildi[1]. Uning hokimiyat davri qisqa - atigi yetti yilni o'z ichiga olgan bo'lsa-da, bu davr Movarounnahr tarixida muhim iz qoldirdi. Ubaydullaxon hukmronligi Buxoro xonligining ilk bosqichidagi eng yirik islohotlar davri sifatida baholanadi.

XVI asr O'rta Osiyo davlatchiligini o'rganishda Ubaydullaxon davri alohida ahamiyat kasb etadi. Bu davrda Shayboniylar davlati ichki barqarorlikka erishib, davlat boshqaruvining institutsional asoslari mustahkamlandi[2]. Biroq Ubaydullaxonning boshqaruv tizimi va islohotlari tadqiqotlarda yetarlicha tahlil etilmagan. Ushbu maqolada ushbu bo'shliqni to'ldirish maqsadida Ubaydullaxon davrida davlat boshqaruvining asosiy yo'nalishlari: markaziy va mahalliy boshqaruv, soliq siyosati, harbiy tashkilot, sud tizimi va diniy-ma'naviy siyosat ketma-ket tahlil qilinadi.

Ubaydullaxon 1533-yilda Abu Saidxon vafotidan so'ng Shayboniylar davlatining oliy hukmdori sifatida tan olindi[3]. Uning taxtga chiqishi muammosiz kechgani emas - sulola vakillari o'rtasida muayyan raqobat mavjud bo'lgan. Biroq Ubaydullaxon bir necha o'n yillik Buxoro hokimligi davomida to'plagan siyosiy tajribasi, harbiy kuchi va ulamolar orasidagi obro'si tufayli boshqa da'vogarlardan ustunlik qildi.

Taxtga o'tirgach, Ubaydullaxon eng avvalo markazlashtirish siyosatini izchil amalga oshirishga kirishdi. Ko'chkunchixon va Abu Saidxon davrida viloyat hokimlari katta mustaqillikka ega bo'lib, markaziy hokimiyat zaiflashgan edi[4]. Ubaydullaxon bu holatni o'zgartirish uchun bir qator chora-tadbirlar ko'rdi: ishonchli yaqinlarini viloyat hokimligiga tayinladi; mahalliy amirlarning harbiy kuchini cheklash siyosatini yuritdi; markaziy devon va boshqaruv apparatini kuchaytirib, viloyatlardan keladigan ma'lumotlar va hisobotlar tizimini tartibga soldi.

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Ubaydullaxon "ko'p yillar davomida barcha viloyat va tumanlardan keluvchi arzu-shikoyatlarni o'zi tinglagan"[5]. Bu boshqaruv uslubi uning markazlashtirish siyosatining amaliy ko'inishi edi. Xonning bevosita aholidan arzu-shikoyat qabul qilishi nafaqat adolat tizimini mustahkamladi, balki mahalliy hokimlar ustidan nazorat mexanizmi vazifasini ham bajaradi.

Ubaydullaxon davrida Buxoro xonligida markaziy boshqaruv devonbegi boshchiligidagi devon (vazirlar kengashi) orqali amalga oshirildi[6]. Devon tarkibiga quyidagi asosiy mansablar kirardi: vaziri a'zam (bosh vazir) - moliya, ichki siyosat va mansab tayinlashlarga mas'ul; sadr - diniy muassasalar va vaqf mulklarini



boshqaruvchi; qo'shbegi - harbiy ishlar va lashkar tashkilotiga mas'ul; devonbegi - moliyaviy hisob-kitob va soliq yig'imini nazorat qiluvchi; mirshab - ichki tartib-intizom va shahar boshqaruviga mas'ul.

Mahalliy boshqaruv tizimida viloyatlar hokim yoki sulton tomonidan boshqarildi. Qo'rg'on va qal'alar dorug'a ixtiyorida bo'lib, shaharlar va qishloqlar amaldorlar orqali idora etildi[7]. Ubaydullaxon viloyat hokimliklariga, qoida tariqasida, sulola a'zolari yoki uzoq yillar xizmat qilgan ishonchli amirlarni tayinladi. Bu siyosat mahalliy hokimiyat markazga sodiqligini ta'minlashga xizmat qildi.

Muhim islohot sifatida Ubaydullaxon viloyat hokimlarining moliyaviy hisobotini qattiqlashtirib, ularning markazga muntazam ma'lumot yuborish majburiyatini qonuniy jihatdan mustahkamladi[8]. Shu bilan birga, u o'z huzuriga kelib shikoyat aytish imkonini aholining turli qatlamlariga berdi - bu o'rta asrlar islom davlatlarida "mazolim" deb ataladigan adolat yuritish instituti edi.

Ubaydullaxon davlat boshqaruvida soliq tizimiga alohida e'tibor qaratdi. Uning davrida soliq yig'imi tartibga solinib, aholi zimmasidagi asossiz yig'imlar cheklanishi natijasida iqtisodiy faollik oshdi[9]. Shayboniylar davridagi an'anaviy soliqlar xiroj (yerdan olinadigan soliq), zakot (mol-mulkdan olinadigan diniy soliq), tamg'a (savdo-tijorat solig'i) - Ubaydullaxon davrida ham amal qildi. Biroq u ushbu soliqlarning undirilish tartibini tartibga solib, suiiste'mollarni qattiqqo'llik bilan jazoladi.

Manbalarda Ubaydullaxonning savdo-tijorat rivojini qo'llab-quvvatlaganligiga doir ko'plab ma'lumotlar mavjud. U karvon yo'llarining xavfsizligini ta'minlash maqsadida harbiy postlar o'rnatdi, ular bo'ylab karvonsaroylar va suv ta'minoti inshootlari qurilishini rag'batlantirdi[10]. Bu tadbirlar Buxoroning Buyuk Ipak yo'li bo'yidagi muhim savdo markazi sifatidagi mavqeini yanada mustahkamlashga xizmat qildi.

Iqtisodiy islohotlarning yana bir muhim jihati - Ubaydullaxonning yerga egalik tizimini tartibga solishi edi. U vaqf (diniy mulk) yerlarini asrab-avayladi, biroq viloyat hokimlarining o'zboshimchalik bilan yer musodara qilishiga chek qo'ydi[11]. Bu siyosat dehqonlar va mayda yer egalarning manfaatlarini himoya qilib, qishloq xo'jaligida barqarorlikni ta'minladi.

Ubaydullaxon hukmronligi davrida harbiy tashkilot masalasiga alohida ahamiyat berildi. U Shayboniylar an'anaviy qo'shin tuzilmasini saqlab qolgan holda bir qator tashkiliy o'zgarishlar kiritdi[12]. Qo'shin asosini ko'chmanchi o'zbek qabilalaridan tashkil topgan otliq harbiy kuch tashkil etardi. Ubaydullaxon bu harbiy kuchni yana bir



qator saralangan piyoda va artilneriya birliklarini qo'shish orqali kuchaytirdi. Ayniqsa, otashli qurol - miltiq va to'plardan foydalanish rivojlanganligi e'tiborga layiqdir.

Ubaydullaxon davrida asosiy harbiy xavf g'arbdan - Safaviy Eron tomonidan kelardi. Ubaydullaxon bu xavfqa qarshi ikki yo'nalishdagi siyosat yuritdi: birinchidan, chegara viloyatlaridagi qal'alarni mustahkamladi va ularga kuchli harbiy garnizonlar joylashtirdi;[13] ikkinchidan, Safaviylarga qarshi diplomatik muvozanat siyosatini yuritib, ba'zi paytlarda Usmonli Turkiya bilan aloqalarni kuchaytirishga harakat qildi[14]. Shimoldagi dasht hududlaridan ko'chmanchi qabilalar xurujiga qarshi ham muayyan chora-tadbirlar ko'rildi. Bu hududlarda chegara mudofaasini tashkil etish uchun mahalliy qabilalar boshliqlari bilan kelishuvlar tuzildi, uchchun soqchi va nazorat postlari o'rnatildi[15].

Ubaydullaxon davrida sud tizimi ikki asosiy yo'nalishda faoliyat ko'rsatdi: shariat qoidalariga asoslangan qozi sudi va an'anaviy o'zbek urf-odatlariga tayangan yasoq (to'ra) sudi. Qozilar rasmiy diniy ta'limga ega olimlardan tayinlanib, fuqarolik va jinoiy ishlarda shariat asosida hukm chiqardilar. Shahrlar va viloyatlarda qozi al-quzzot (bosh qozi) boshchiligida qozilik tizimi ishlardi.

Ubaydullaxon sud adolatiga alohida e'tibor qaratdi. Manbalarda uning qozilar faoliyatini shaxsan nazorat qilganligi, poraxo'rlik va adolatsizlik hollari aniqlanganda esa shafqatsiz jazo qo'llanishi qayd etilgan. Bu siyosat sud tizimiga bo'lgan xalq ishonchini kuchaytirdi va o'zboshimchalik hollari kamayishiga olib keldi.

Muhim jihat sifatida Ubaydullaxon aholining har bir qatlamiga - dehqondan savdogargacha - xon huzuriga kelib arzu-shikoyat aytish imkonini berib turdi. Bu o'rta asrlar davlatchiligida nisbatan noyob hodisa edi va uning hukmronligi davri adolatli hukmdor sifatida tarixda qolishiga asos berdi.

Ubaydullaxon Sunniy islom hamda Naqshbandiya tariqati bilan yaqin aloqada bo'lgan hukmdor sifatida tarixda tanilgan[16]. Naqshbandiya tariqati o'sha davrda Movarounnahrning diniy-ma'naviy hayotida yetakchi rol o'ynagan, tariqat shayxlari esa siyosiy arboblardan yaqin munosabatda bo'lgan. Ubaydullaxon bu munosabatni o'z hokimiyatining qonuniyligini mustahkamlash uchun ongli ravishda unumli foydalandi.

Ubaydullaxon davrida Buxoroda bir qator madrasa, masjid va xonaqohlar qurildi yoki ta'mirlandi. U vaqf mulklarini kengaytirib, diniy ta'lim muassasalariga moddiy yordam ko'rsatdi[17]. Ayni paytda u o'ta mutaassib diniy siyosatdan qochdi - Safaviylar bilan tafovutini sunniylik va shialik qarama-qarshiligi nuqtayi nazaridan ko'proq siyosiy manfaatlar asosida belgiladi.



Manbalarda Ubaydullaxon o‘zi ham shoir va olim sifatida tilga olinadi. U arab va fors tillarini mukammal bilgan, badiiy adabiyotga qiziqgan va o‘z saroyida olim hamda shoirlarni qo‘llab-quvvatlagan. Bu madaniy davra Buxoroni nafaqat siyosiy, balki ilmiy va adabiy markaz sifatida ham ulug‘lashga xizmat qildi.

XULOSA

Ubaydullaxon (1533-1540) davrida Buxoro xonligida amalga oshirilgan davlat boshqaruvi islohotlari XVI asr Markaziy Osiyo davlatchiligining muhim bosqichini tashkil etadi. Ushbu maqolada tahlil qilingan beshta asosiy yo‘nalish -markazlashtirish siyosati, ma‘muriy tuzilma, soliq va iqtisodiy islohotlar, harbiy tashkilot hamda diniy-ma‘naviy siyosat - Ubaydullaxonning bir butun, izchil davlat qurilishi dasturini amalga oshirishga intilganini ko‘rsatadi.


Ubaydullaxon islohotlarining asosiy xususiyati shundan iboratki, u mavjud an‘anaviy boshqaruv tizimini saqlab qolgan holda uni isloh qildi. Qoida tariqasida keskin inqilobiy o‘zgarishlar o‘rniga evolyutsion takomillashtirish yo‘lini tanladi: viloyat hokimlarining vakolatlarini chekladi, ammo ularni butunlay bekor qilmadi; soliq tizimini tartibga soldi, ammo tubdan qayta ko‘rmadi; diniy muassasalarni kuchaytirdi, ammo ularni siyosiy jihatdan haddan tashqari mustaqil qoldirmadi.

Ubaydullaxon hukmronligi atigi olti yil davom etgan bo‘lsa-da, uning islohotlari keyingi Buxoro xonligi tarixiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi. Ayniqsa uning markazlashtirish siyosati, savdo-tijoratni qo‘llab-quvvatlashi va sudda adolat tamoyillarini amalga oshirishga intilishi XVI asr ikkinchi yarmida Abdullaxon II davrida yanada rivojlangan davlat boshqaruvi tizimining asosini tashkil etdi.

Shunday qilib, Ubaydullaxon Movarounnahr tarixida nafaqat g‘alaba qozongan harbiy sarkarda va tajribali siyosatchi sifatida emas, balki mamlakatni tartibga solishga intilgan, xalq farovonligini o‘ylaydigan va ilm-fanni qadrlagan davlat arbobi sifatida ham munosib o‘rin egallaydi. Uning merosini to‘liq baholash esa keyingi tadqiqotlar uchun muhim ilmiy vazifa bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hofiz Tanish al-Buxoriy. Abdullanoma. – Toshkent: Sharq, 2023. – B. 115-120.
2. Muhammadyor ibn Arab Qatag‘an. Musaxxir al-bilod. – Toshkent: Fan, 2009. – B. 155-160.
3. Zamonov A. Buxoro xonligi tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – B. 104–112.
4. Ахмедов Б.А. История Бухары с древнейших времен до наших дней. – Ташкент: Фан, 1982. – С. 118-125.





5. Erkayeva M. Ubaydullaxon I davrida Buxoro xonligi. // "PEDAGOGS" International Research Journal. Volume-83. – 2025. – B. 104-110.
6. Сагдуллаев А.С., Мавлонов Ў. Ўзбекистонда давлат бошқаруви тарихи. – Тошкент: Академия, 2006. – В. 162-170.
7. Hofiz Tanish al-Buxoriy. Abdullanoma. – Toshkent: Sharq, 2023. – В. 122-130.
8. Amir Haydar. Tarixi Rashidiy. – Toshkent, 2020. – В. 390-395.
9. Mirzayev F. O'rta Osiyo davlatlari tarixi. – Toshkent: Sharq, 2010. – В. 205-212.
10. Zamonov A. Buxoro xonligi tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – В. 115-120. Shuningdek qarang: Ахмедов Б.А. История Бухары. – Ташкент: Фан, 1982. – С. 125-130.
11. Hofiz Tanish al-Buxoriy. Abdullanoma. – Toshkent: Sharq, 2023. – В. 132-140.
12. Muhammadyor ibn Arab Qatag'an. Musaxxir al-bilod. – Toshkent: Fan, 2009. – В. 162-168.
13. Сагдуллаев А.С., Мавлонов Ў. Ўзбекистонда давлат бошқаруви тарихи. – Тошкент: Академия, 2006. – В. 168-175.
14. Dale S.F. The Muslim Empires of the Ottomans, Safavids, and Mughals. – Cambridge University Press, 2010. – P. 88-95.
15. Erkayeva M. Ubaydullaxon I davrida Buxoro xonligi. // "PEDAGOGS" International Research Journal. Volume-83. – 2025. – В. 107-108.
16. Xoliqova R. XVI asr O'rta Osiyo siyosiy tarixi. – Toshkent: Fan, 2015. – В. 90-98.
17. Ахмедов Б.А. История Бухары. – Ташкент: Фан, 1982. – С. 132-138.

ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSION TADQIQOTLAR INSTITUTI




ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSION TADQIQOTLAR JURNALI

2026-yil Iyun 1(2) son

© Materiallar ko'chirib bosilganda **“ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSION TADQIQOTLAR”** jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

“ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSION TADQIQOTLAR” jurnali 14.05.2026-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-56699005 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 31-yanvardagi 24-son qaroriga binoan jurnal quyidagi bazalarda indekslanadi: Manbalar:



Toshkent viloyati, Piskent tumani, Do'ngqo'rg'on MFY, Mustaqilligi ko'chasi, 41-uy
+998 955868893

zamonaviyilmfanjurnali@gmail.com